



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 16-noyabr, № 243 (8586)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

AHOLINI KICHIK VA O'RTA BIZNESGA KENG JALB QILISHNING QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, jumladan, aholida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha yaxlit tizim joriy etish maqsadida:

1. Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilansin:

aholi va tadbirkorlik subyektlarini o'qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish va "o'ilaviy tadbirkor — mikrobiznes — kichik biznes — o'rta biznes" zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat dasturlari doirasida kichik va o'rta biznes loyihalarini "Biznesni rivojlantirish banki" ATB, "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ va boshqa hamkor tijorat banklaridan iborat yaxlit moliyaviy tizim asosida qo'llab-quvvatlash;

tadbirkorlikka o'qitish, kichik va o'rta biznes loyihalarini moliyalashtirish hamda biznes jarayonlarining barcha bosqichlarida doimiy hamrohlik qilishni "Kichik biznesga ko'maklashish markazi" MCHJlar va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJda, shuningdek, vakolatli organlar va tijorat banklarining tadbirkorlik yo'nalishidagi elektron platformalarida (keyingi o'rinlarda — elektron platformalar) amalga oshirish.

2. 2024 — 2026-yillar uchun "Biznesni rivojlantirish banki" ATB va "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ faoliyatining asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

a) "Biznesni rivojlantirish banki" ATB bo'yicha: kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlar qoldig'ini 1,7 baravarga oshirish orqali kredit portfelidagi ulushini 28 foizdan 43 foizga yetkazish;

kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jami 800 million AQSH dollarigacha miqdorda resurslar jalb qilish;

300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish;

150 mingta kichik tadbirkorlik subyekti faoliyatini yo'lga qo'yish va kengaytirish;

b) "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ bo'yicha: kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 trillion so'mdan 14 trillion so'mga yetkazish;

150 ta o'rta biznes korxonasiga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi asosida 300 ta loyihani tadbirkorlik subyektlariga sotish;

o'rta tadbirkorlik subyektlari sonini 2,5 baravarga oshirish;

300 million AQSH dollari miqdorida obligatsiya (yevrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish.

3. Quyidagilar:

Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) 1-ilovaga muvofiq tarkibida;

Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilish bo'yicha hududiy komissiyalar 2-ilovaga muvofiq namunaviy tarkibda tashkil etilsin.

(Davomi 2-betda).



O'ZBEKISTONNING JOZIBADORLIGI HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR TUFAYLI YANADA OSHMOQDA



O'zbekistondagi o'zgarishlar, islohot va yutuqlar, sayyohlarga yaratilayotgan qulayliklar biz, qozog'istonliklarni ham quvontirmoqda. Eng yaqin turistik maskan sifatida O'zbekistonga borish bizlarga qulay, albatta. Birinchidan, O'zbekistonda ziyorat qilish mumkin bo'lgan joylar talaygina. Tarixiy obidalar ular orasida alohida ajralib turadi. Taomlarining sifati va ta'mini aytmasa ham bo'ladi. Odamlarining mehmondo'stligiga gap yo'q. Toza va ko'rkam shaharlari kishini o'ziga jalb etadi. Iqlimi esa betakror.

E'tirof

Ushbu muazzam mamlakat uzoq yillar butun dunyo uchun go'yo yopiqdek edi. Chegaralardagi uzoq tekshiruvlar, qandaydir sabablarga ko'ra ayb izlash, ro'yxatga olishdagi qiyinchiliklar, o'zingiz bilan birga olib kirgan valyutalarni

almashtirishdagi murakkabliklar sayyohlarni boshqa manzillarni izlashga majbur etardi. Endi bu muammolar ortda qoldi.

Men yaqinda Toshkentda bo'ldim. O'zgarishlar beqiyos. Men kabi minglab turistlar bamayilxotir, emin-erkin ming yillik osori atqalar, ko'hna yodgorliklarni tomosha qilib yuribdi.

BIZGA TINCH VA BARQAROR, MANFAATLI SHERIKLIK UCHUN OCHIQ AFG'ONISTON KERAK

Bugungi dunyo geosiyosiy maydonida kuzatilayotgan tahlikali vaziyatda Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash global xavfsizlikning muhim sharti bo'lib qoldi. Prezidentimiz O'zbekiston tashqi siyosatining tinchlikparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, atf'on muammosiga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, mintaqaviy mojarolar yechimini topish, davlatlararo munosabatlarda o'zaro hurmat va qat'i'y ishonch, olis istiqbolni ko'zlagan umuminsoniy manfaatlar atrofida birlashish g'oyasini ilgari suryapti.

Nuqtai nazar

Davlatimiz rahbari Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash masalasining nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun ahamiyatini eng yuksak minbarlardan turib ta'kidlab kelmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi, Turkiy davlatlar tashkilotining Ostona sammiti va Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkentdagi uchrashuvi ham bundan mustasno emas. Xususan, yaqinda poytaxtimizda bo'lib o'tgan IHT o'n olтинchi sammitidagi nutqida Prezident Shavkat Mirziyoyev asrlar davomida bizga yon qo'shni bo'lgan ko'p millatli Afg'oniston xalqini bugungi

murakkab muammolari qarshisida yolg'iz qoldirib bo'lmastligini, ushbu mamlakatni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol jalb etish barqaror taraqqiyotimizning ajralmas va zaruriy sharti ekanligini ta'kidladi, ishtirokchilarni afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishni ko'paytirishga, ushbu mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga jamoaviy mas'uliyat va maqbul mexanizmlar asosida yechim topishga chaqirdi.

O'zbekiston rahbari Afg'onistondagi vaziyatni faqat tinch, siyosiy-diplomatik yo'llar bilan hal etishga chaqirar ekan, unding suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, mamlakatning tinch, bo'linmas, mustaqil, iqtisodiy rivojlanayotgan

QUM VA CHANG BO'RONLARI TA'SIRINI KAMAYTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

Samarqandda davom etayotgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasi (CRIC-21 UNCCD) ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov raisligida yalpi majlis bo'lib o'tdi.

Tadbirida Sent-Lyusiya qishloq xo'jaligi, baliqchilik, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq taraqqiyoti vaziri Alfred Prosper, UNCCD COP15 raisi Alen-Rishar Donval, Saudiya Arabistoni Qirolligi atrof-muhitni muhofaza qilish vaziri o'rinbosari, UNCCD COP16 yangi raisi Usama Ibrohim Faqih, UNCCD palatasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni haqida keng tushuntirish berildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, inson salomatligi, atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qarshi tahdidlar, ularning sabablari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlari, shuningdek, iqlim

o'zgarishi, yerlarning degradatsiyasi va havoning ifloslanishi bilan bog'liqligi to'g'risida siyosiy xabardorlikni oshirish tadbirning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Milliy, mintaqaviy va global miqyosda siyosat, qoidalar va harakat rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, shu jumladan, milliy boshqaruv salohiyatini mustahkamlash, transchegaraviy muammolarni hal qilishda mintaqaviy hamkorlikni rag'batlantirish, tomonlarning hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari ham muhokama etildi.

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

IHT:

ELEKTROTEXNIKA BO'YICHA SARMOYAVIY HAMKORLIK JADAL RIVOJLANADI

Shu yilning 9-noyabr kuni Toshkentda "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 16-sammiti bo'lib o'tdi. Poytaxtimizda o'tkazilgan tarixiy sammit IHT doirasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirish, xorijiy hamkorlar bilan sanoat kooperatsiyasini yanada kengaytirish, o'zaro tajriba almashish va qo'shma dasturlarni ro'yobga chiqarishda muhim platforma vazifasini bajarishi, shubhasiz.

Taraqqiyot mezonlari

Prezidentimiz sammitda nutq so'zlab, "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari — 2035" konseptual hujjatini ishlab chiqish vaqti kelganini ta'kidladi va yettita muhim taklifni ilgari surdi. Xususan, o'zaro savdoni rag'batlantirish,

sanoat kooperatsiyasi va ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish hamda industrial xablarni shakllantirish shular jumlasidandir.

Sammit avvalida esa "Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlatlarida kichik va o'rta biznes — iqtisodiy rivojlanish va taraqqiyotning asosiy

drayveri" mavzuida biznes-forum o'tkazildi. Ishonamizki, ushbu anjuman iqtisodiyotning barcha tarmog'i, xususan, elektrotexnika yo'nalishida ham aloqalarni yaxshilash hamda yangi va istiqbolli loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

MILLIY KOMISSIYANING FAOLIYATI MUNOSIB BAHOLANDI

Oliy Majlis Senatida Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi vakillari O'zbekistonning ushbu yo'nalishda ish tajribasini o'rganish maqsadida mamlakatimizda bo'lib turgan Estoniyaning Adliya vazirligi jinoiy siyosat masalalari bo'yicha maslahatchisi, odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha milliy koordinator A. Leps boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Uchrashuv

Konstruktiv va amaliy jihatlarini qamrab olgan muloqot davomida Estoniya tomoniga

odam savdosiga qarshi kurashish, bolalar va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ko'rilayotgan kompleks chora-tadbirlar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalarining amaliy ijrosi haqida keng ma'lumot berildi.

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston — Xitoy:

PARLAMENTLARARO ALOQALAR MUSTAHKAMLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Qodir Jo'rayev va bir guruh deputatlar Xitoy Xalq Respublikasining Ninsya-Xuey avtonom tumani rasmiy delegatsiyasi a'zolari bilan uchrashdi.

Uchrashuv davomida tomonlar ikki davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari va siyosiy irodasi tufayli bugungi kunda O'zbekiston — Xitoy hamkorlik munosabatlari keng ko'lamli ahamiyat kasb etib, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani, mamlakatlarimiz o'rtasida barcha sohadagi aloqalar izchil rivojlanayotganini e'tirof qilishdi.

Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Q. Jo'rayev mamlakatlarimizni ko'p yillik hamkorlik va mustahkam do'stlik rishtalari bog'lab turishi, parlamentlariz hamda qonun ijodkorligi borasidagi faol aloqalar va o'zaro maslahatlashuvlar teng huquqlikka asoslangan sheriklik munosabatlarining yana bir ifodasi ekanini qayd etdi.

Uchrashuvda tomonlar qayta tiklanuvchi energetika, transport infratuzilmasini rivojlantirish va logistika, sanoat parklari va qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etish borasida, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohasidagi hamkorlik istiqbollariini muhokama qilishdi.

Muloqot yakunida O'zbekiston — Xitoy o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni kengaytirish va uni yangi mazmun bilan boyitish, norma ijodkorligi sohasida tajriba almashish masalalari bo'yicha fikrlashildi.

"Xalq so'zi".

KONSTITUTSIYAVIY YANGILANISHLAR YURT RAVNAG'I VA AHOLI FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN

Xalq deputatlari Olmazor tumani Kengashida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari Toshkent shahar va tuman Kengashlari deputatlari hamda jurnalistlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazildi.

Davra suhbatlari

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada jadallashtirish, fuqarolar huquq va manfaatlarini ta'minlash, aholi farovonligini yuksaltirish, mamlakat infratuzilmasini keng rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohada olib borilayotgan islohotlar "Inson qadri va uning manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyilning hayotiy ro'yobini ta'minlamoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham inson qadriini ulug'lash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir qator muhim yangi normalar belgilangan. Xususan, O'zbekiston — demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat

ekani, inson bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi, majburiy mehnat, bolalar mehnatining og'ir shakllaridan foydalanish taqiqlanishi va javobgarlikka sabab bo'lishi hamda davlat hisobidan bepul tibbiy yordam olishi o'z aksini topdi.

Davra suhbatida "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar haqida so'z yuritildi.

Qayd etilganidek, ushbu dasturlamal hujjatda xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha

imkoniyatni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda Konstitutsiyamizda ifodalangan normalarni hayotga tatbiq qilish va ularni qonunlarda aks ettirish, Taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni haqida keng tushuntirish berildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

AHOLINI KICHIK VA OʻRTA BIZNESGA KENG JALB QILISHNING QOʻSHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TOʻGʻRISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

4. Respublika komissiyasi (Qoʻchqorov) 2023-yil 15-dekabrga qadar: hududlar va davlat dasturlari yoʻnalishlari kesimida 2024-yilda 2 million aholini biznesga jalb qilishning maqsadli koʻrsatkichlarini; “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ faoliyatining asosiy maqsadli koʻrsatkichlariga erishish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni (tarmoq jadvallari) tasdiqlasin. Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi oʻrinbosari I.I.Norqulov, Markaziy bank raisi oʻrinbosari A.A.Turdaliyev va oʻzlariga birlashtirilgan hududlar boʻyicha Respublika komissiyasi aʼzolari zimmasiga aholini kichik va oʻrta biznesga keng jalb qilishning ustuvor yoʻnalishlarini roʻyobga chiqarish va maqsadli koʻrsatkichlarga erishish vazifasi yuklansin. Respublika komissiyasi aʼzolari bir oy muddatda oʻzlari birlashtirilgan hududda har bir tuman va shaharga chiqqan holda, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun oʻquv seminarlarini tashkil qilsin. 5. Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi (Vafayev) bir oy muddatda “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun “Biznesni rivojlantirish banki” ATBga jami 300 million AQSH dollari miqdorida, shu jumladan: 75 million AQSH dollari “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning ustav kapitalini oshirishga;

225 million AQSH dollari subordinar qarz sifatida 15 yil muddatda, 5 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5 foiz stavkada mablagʻlar ajratsin. 6. Belgilansinki: a) kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili asosida xizmat koʻrsatish uchun “Kichik biznesga koʻmaklashish markazi” MCHJlar va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning vakillari belgilangan tartibda Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari binolariga joylashtiriladi; b) Savdo-sanoat palatasi (Vahobov), Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha vakil (Qosimov), Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi (Ubaydullayev) har hafta: mahallalarga chiqqan holda aholi va tadbirkorlik subyektlari oʻrtasida davlat dasturlarida kichik va oʻrta biznes uchun belgilangan moliyaviy imkoniyatlar toʻgʻrisida targʻibot-tashviqot ishlarini olib boradi; “Kichik biznesga koʻmaklashish markazi” MCHJlarda namunaviy qoʻllanmalar asosida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun oʻquv seminarlarini oʻtkazib boradi; salohiyatli tadbirkorlik subyektlarini aniqlab, “Kichik biznesga koʻmaklashish markazi” MCHJlarga va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning vakillariga ularning loyihalarini amalga oshirish boʻyicha tavsiyalar beradi. 7. Belgilab qoʻyilsinki, davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardan samarali foydalanish, ularning oʻz vaqtida qaytarilishini taʼminlash maqsadida 2024-yil

1-iyuldan boshlab: kredit ajratishning barcha bosqichlari (arizani koʻrib chiqish, qaror qabul qilish, kafillik berish va kredit ajratish) raqamlashtirilgan holda elektron platformalarda amalga oshiriladi; kredit taʼminotlarini nazorat qilish, garovga olingan mulklarni taqiqdan toʻliq yoki qisman qariqarish hamda almashtirish jarayonlari elektron platformalar orqali markazlashgan holda tashkil qilinadi; axborot texnologiyalari yordamida mijozlar biznes-rejalar asosida faoliyat yuritishi, pul oqimlari va boshqa koʻrsatkichlarini tahlil qilish orqali xatarlarni oldindan aniqlash mexanizmi amaliyotga kiritiladi; davlat dasturlari doirasida tuman (shahar) va mahallalarga ajratiladigan kreditlar hajmi yuzaga kelgan muammoli kreditlar ulushidan kelib chiqib belgilanadi. 8. 2024-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga oʻzlar ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard soʻmgacha qiymatda toʻgʻridan-toʻgʻri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berilsin. Iqtisodiyot va moliya vazirligi bir oy muddatda mazkur bandeda nazarda tutilgan shartnomalarni tuzish va roʻyxatdan oʻtkazish uchun davlat xaridlari maxsus axborot portalida alohida sahifa tashkil etsin va uni vazirlik va idoralar maʼlumotlar bazalari bilan integratsiya qilsin.

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Norqulov): Markaziy bank (Turdaliyev), “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (Annaqlichev), “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ, Savdo-sanoat palatasi (Vahobov) va Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish boʻyicha vakil (Qosimov), bilan birgalikda bir hafta muddatda davlat dasturlarida nazarda tutilgan imkoniyatlar va ularda ishtirok etish shartlari toʻgʻrisida taqdimot materiallari va videoroliklardan iborat namunaviy qoʻllanmalar tayyorlab, Respublika komissiyasi aʼzolari va hududiy komissiyalarga yetkazilishi hamda elektron platformalarda joylashtirilishini taʼminlasin; manfaatdor idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin. 10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir oʻrinbosari J.A.Qoʻchqorov va Markaziy bank raisi M.B.Nurmuratov belgilansin. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun masʼul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2023-yil 15-noyabr

MILLIY KOMISSIYANING FAOLIYATI MUNOSIB BAHOLANDI

Estoniya Adliya vazirligi vakili bolalar va majburiy mehnatga barham berish borasida Oʻzbekistonda olib borilayotgan ulkan va samarali ishlarni alohida taʼkidladi. Oʻzbekistonning odam savdosiga qarshi kurash borasidagi tajribasi Yevropa davlatlari, jumladan, Boltiqboʻyi mamlakatlari uchun ham dolzarb ekani qayd etildi. Shu bilan birga, uchrashuvda ishtirok etgan BMTning narkotiklar va jinoyatchilik boʻyicha boshqarmasining mintaqaviy vakili R. Sirgediyene tomonidan Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva rahbarligidagi Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish

milliy komissiyasining faoliyati yuqori baholandi. Ayni chogʻda Oʻzbekistonning mehnat munosabatlari rivojlantirish, odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish borasidagi saʼy-harakatlari BMT tomonidan ham har tomonlama qoʻllab-quvvatlanayotgani alohida taʼkidlab oʻtildi. Uchrashuv yakunida tomonlar qoʻshma davra suhbatlari tashkil etish va odam savdosiga qarshi kurashishning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish orqali ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash boʻyicha kelishuvga erishdi.

“Xalq soʻzi”.

JAMIYATDA PARLAMENTNING ROLI ORTIB BORAYOTGANI EʼTIROF ETILDI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qoʻmitasi raisi Ravshanbek Alimov Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari boʻyicha byurosi direktori Matteo Mekachchi bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Muloqot

Unda tomonlar Oʻzbekiston bilan YXHT oʻrtasida keyingi yillarda oʻrnatilgan ochiq va ishonchli muloqotni mamnuniyat bilan urgʻuladi hamda oʻzaro manfaatli sohalarida yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishga tayyor ekanliklarini bildirdi. Oʻz navbatida, M. Mekachchi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni qoʻllab-quvvatlashini taʼkidlab, jamiyatni isloh qilishda mamlakat parlamentining roli ortib borayotganini eʼtirof etdi. Ayni chogʻda u YXHT

DIIHB Oʻzbekistonda parlamentarizm va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga har tomonlama hissa qoʻshishga tayyorligini bildirdi hamda saylov qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan qator tavsiyalar berdi.

Shuningdek, mehmon Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegatsiyasining YXHT PA faoliyatida faol ishtirok etishi muhimligini aytib oʻtdi. Uchrashuv yakunlari boʻyicha tomonlar yaqin muloqotni va hamkorlikni mustahkamlashga kelishib oldi.

“Xalq soʻzi”.

BARQAROR INFRATUZILMANI YARATISH, INKLYUZIV SANOATLASHTIRISH VA INNOVATSIYA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qoʻmitasi tomonidan Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qoʻmitasi bilan hamkorlikda Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi doirasida “Barqaror infratuzilmani yaratish, inklyuziv sanoatlashtirish va innovatsiyalarga koʻmaklashishdagi muammolar” mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Tadbir

Tadbirda barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli, barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga koʻmaklashish borasida yoʻl-transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda odamlar ogʻirini yengil qilish, umuman, xalq farovonligini qoʻllab-quvvatlash zarurligi taʼkidlandi.

Bu borada transport sohasida 2023-yilda jami 76 ta yangi yoʻnalish tashkil etilib, ularda 141 ta avtobus, 75 ta mikroavtobus, 304 ta “Damas” rusumli avtomobil qatnovi yoʻlga qoʻyildi.

Oʻtgan davr mobaynida 357,3 km. masofali Buxoro — Miskin va 33,78 km.lik Urganch — Xiva temir yoʻl uchastaklari qurilib, foydalanishga topshirilgan hamda 325 km. masofali Qarshi — Termiz, 145 km.lik Pop — Namangan — Andjon temir yoʻl uchastaklari elektrlashtirilgan. Ayni chogʻda 50 km. masofali “Ikki izli elektrlashtirilgan Jizzax — Yangiyetemir yoʻli liniyasini qurish” loyihasi ishga tushirildi.

Havo transporti sohasida esa 2023-yilning yanvar — sentyabr oylarida Oʻzbekiston Respublikasi rezident aviakompaniyalari tomonidan 38 ming 882 ta aviaqatnov amalga oshirilib, jami 4 865,7 ming nafar yoʻlovchi tashildi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi elektr transportini ommalashtirish boʻyicha qator chora-tadbirlar koʻrildi. Jumladan, elektromobillar importi aksiz va bojxona toʻlovlaridan ozod qilindi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning sanoat sektorini barqaror rivojlantirish boʻyicha qator ishlar bajarilib, resurs tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng qoʻllash orqali mavjud korxonalarni modernizatsiyalashtirish hamda yangilarini tashkil etish imkoni vujudga keldi.

Qolaversa, “Oʻzbekneftgaz”

“Xalq soʻzi”.

QUM VA CHANG BOʻRONLARI TAʼSIRINI KAMAYTIRISH MASALALARI KOʻRIB CHIQILDI

Moliyaviy institutlar, rivojlanish agentliklari va tegishli tashkilotlar salohiyatini oshirishga hamda salbiy taʼsirlarning oldini olish hamda kamaytirishga qaratilgan loyiha va dasturlarga sarmoya kiritishni ragʻbatlantirish uchun moliyalashtirish boʻyicha ham fikr almashildi.

Oliy darajadagi tadbir doirasida turli mamlakatlar vazirlari va atrof-muhit sohasidagi yetakchilarning uchrashuvi hamda hukumatlar, BMT agentliklari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida interfaol muloqot boʻlib oʻtdi.

Anjumanda global miqyosda qum va chang boʻroni dasturining siyosiy mavqeini oshirish uchun birgalikda amalga oshiriladigan tadbirlar, bu borada global va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish imkoniyatlari, qum boʻronlari taʼsirini yumshatish va kamaytirish uchun asosiy texnik, moliyaviy ehtiyojlar kabi mavzular muhokama qilindi.

Gʻolib HASANOV, OʻZA muxbiri.

KAMBAGʻALLIK DARAJASINI QISQARTIRISH CHORALARI KOʻRILMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi hamda Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar qoʻmitasi hamkorligida Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida “Ayollar va erkaklar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda bandlikni taʼminlashning dolzarb masalalari” mavzusida davra suhbati oʻtkazildi.

Quyi palata deputatlari, Senat aʼzolari, vazirlik va idoralar masʼullari, xalqaro tashkilotlar hamda siyosiy partiyalar vakillari ishtirok etgan tadbirda yalpi ichki mahsulot hajmining aholi jon boshiga oʻsishini taʼminlash, iqtisodiyotda samaradorlikning oʻsishiga erishish, yoshlar, ayniqsa, nogironligi boʻlgan insonlarni munosib ish bilan kafolatlash, samarali bandlikni kengaytirish va boshqa shu kabi masalalar muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, hozirgi vaqtda mamlakatimizda mehnat resurslari soni 19,5 milliondan ortiq kishini, shundan ish bilan nodaol aholi 13,8 mln., iqtisodiy bandool aholi 4,3 mln., ishsizlar 1,3 mln. kishini, ishsizlik darajasi esa 8,6 foizni tashkil etadi. 2023-yilda esa taʼlim

muassasalarining 813 ming nafar bitiruvchisi, mehnat migratsiyasidan qaytgan 241 ming nafar migrant, muddatli harbiy xizmatdan ozod etilgan 21,4 ming yigit, ishini yoʻqotgan 13,4 ming nafar shaxs mehnat bozoriga kirib keladi.

Joriy yilning yanvar — sentabr oylarida respublika boʻyicha jami 5 mln. 199 ming aholi bandligi taʼminlangan. Xususan, doimiy ish oʻrinlarga 2 mln. 53 ming, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarga 2 mln. 422 ming hamda legallashtirish hisobiga 724 ming nafar fuqaro joylashtirilgan.

Shuningdek, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlari tomonidan joriy yilning 9 oyida 561 ming nafar fuqaroga bandlik xizmatlari koʻrsatilgan. Ularning

294,7 ming nafariga korxona va tashkilotlardagi boʻsh ish oʻrinlariga ishga joylashishiga koʻmaklashilgan. Shundan 166,7 nafarini ayollar, 100,1 ming nafarini esa yoshlar tashkil etadi.

Qolaversa, joriy yilda “ayollar daftari”ga kiritilgan 425,8 ming nafar ishsiz xotin-qiz bandligini taʼminlash belgilangan boʻlib, hozirgi kunga qadar ulardan 409 ming nafarining bandligiga koʻmaklashilgan.

Bugungi kunda respublika boʻyicha 1 200 mingta kambagʻal oila roʻyxati shakllantirilib, “Onlayn mahalla” elektron platformasiga kiritilgan. Yil yakuniga qadar respublikamizda 127 ming 500 ta oila kambagʻallikdan chiqarilib, kambagʻallik darajasini 12 foizga tushirish choralari koʻrilmoqda.

Tadbirda parlament aʼzolari har bir vazirlik va idoraning 2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar bajarilishiga alohida eʼtibor qaratishi, yoʻl qoʻyilgan xato, kamchiliklar yuzasidan aniq



va qatʼiy choralar koʻrish boʻyicha takliflar berdi.

Oʻz navbatida, mamlakatimizda aholi bandligini taʼminlash va yangi ish oʻrinlarini tashkil qilishga qaratilgan koʻplab dasturlar bajarilayotgani ham alohida qayd etildi.

— Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish oʻrinlarini koʻpaytirish va kambagʻallikni qisqartirish, — deydi Qonunchilik palatasi deputati Nodir Tilavoldiyev. — Shu bois yurtimizda bandlik dasturlari doirasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Chunki odamlar ishl boʻlsa, aholi jon boshiga

daromad koʻpaysa, hayotda katta maqsadlar bilan yashaydi, oilasida tinchlik, ishida unum boʻladi. Oxirgi yetti yilda aholi, avvalo, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini taʼminlash, ularning tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash Prezidentimizning doimiy eʼtiborida boʻlib, bu boʻyicha aniq chora-tadbirlar roʻyobga chiqarildi. Yangi Oʻzbekistondagi islohotlar natijasini esa har birturdoshimiz oʻz hayotida his qilib turibdi.

Tadbirda muhokama etilgan masala yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar belgilab olindi.

“MAHALLA BYUDJETI” MABLAGʻLARI QANDAY MAQSADLARGA SARFLANADI?

Maʼlumki, joriy yil 25-26-oktyabr kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari qoʻmitasi tomonidan mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hisobiga “Mahalla byudjeti”ni shakllantirish boʻyicha olib borilayotgan ishlar holati Surxondaryo, Namangan va Xorazm viloyatlarida nazorat-tahlil tartibida oʻrganilgan edi.

Mazkur qoʻmitaning kecha boʻlib oʻtgan yigʻilishida ushbu oʻrganish yakunlari muhokama qilindi. Unda iqtisodiyot va moliya, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Soliq qoʻmitasi

masʼul xodimlari, Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan faol mahalla raislari, siyosiy partiya fraksiyalari aʼzolari, OAV vakillari, shuningdek, Surxondaryo, Namangan va Xorazm viloyatlari masʼullari videokonferensaloqa orqali qatnashdi.



Qayd etilganidek, mamlakatimizda keyingi yillarda mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash, tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirish, uning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mahallaga qoʻshimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilyapti,

vakolat ham, masʼuliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda.

Prezidentimizning “Mahalla byudjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidaʼgi qaror bilan birinchi marta huquqiy eksperiment tariqasida har bir mahalla oʻzining muammosini mustaqil hal qilishi uchun 2023-yil 1-yanvardan boshlab koʻrsatkichi past boʻlgan tumanlarda “Mahalla byudjeti” tizimi tariqasida jismoniy shaxslardan mol-mulk soligʻi va yer soligʻining undirilishi belgilandi.

Yigʻilishda nazorat-tahlil tartibidagi oʻrganishlarda “Mahalla byudjeti” mablagʻlari mahallada ish oʻrni yaratadigan, aholining ogʻirini yengil qiladigan loyihalarga yoʻnaltirilishi belgilangani taʼkidlandi. Joylarda mahalla xodimlarining soliq yigʻimlarini yigʻishda faol qatnashayotgani, xususan, Jarqoʻrgʻon tumanida soliq yigʻimi 1,6 foizga oshgani maʼlum boʻldi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan mol-mulk va yer soligʻi boʻyicha undirilgan mablagʻlarning 10 foiz qismini mahallalardagi jamgʻarmalarga oʻtkazish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlardagi nomutanosibliklar yuzaga

kelgan, jamgʻarma mablagʻlarini tasarruf etish va yoʻnaltirish tartib-tamoyillari, umumiy mablagʻni yoʻnaltirish boʻyicha taqsimot qilish yoʻriqnomasi, nizomlari ishlab chiqilmagan. Bu kabi omillar ushbu tizimning joylarda ijrosini taʼminlashda toʻsiq boʻlmoqda.

Yigʻilishda aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida huquqiy eksperiment joriy qilingan tumanda mol-mulk va yer soliQi boʻyicha undiriladigan mablagʻlarning 10 foizini avtomatik tarzda iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamgʻarmasiga yoʻnaltirish maqsadga muvofiqligi taʼkidlab oʻtildi. Deputatlar tomonidan “Mahalla byudjeti” mablagʻlari mahallada aholining ogʻirini yengillashtiradigan loyihalarga sarflanishi, mablagʻlarning hisobini yuritish va nazorat qilish hamda mazkur jarayonda inson omilini kamaytirgan holda avtomatik tizim yaratish boʻyicha taklif va tavsiyalar berildi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar belgilab olindi.

“Xalq soʻzi”.

BIZGA TINCH VA BARQAROR, MANFAATLI SHERIKLIK UCHUN OCHIQ AFG‘ONISTON KERAK



2021-yil 15-16-iyul kunlari O‘zbekistonda tashkil etilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzuidagi yuqori darajadagi xalqaro konferensiyasi Afg‘onistonda tinchlikka erishilishiga ko‘maklashish bo‘yicha xalqaro sa‘y-harakatlarga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Ushbu xalqaro tadbir Afg‘onistondagi tinchlik va barqarorlik mintaqalariga aloqalarni rivojlantirishda muhimligini yana bir bor tasdiqladi.

2022-yil 25-26-iyul kunlari Toshkentda o‘tkazilgan “Afg‘oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” mavzuidagi xalqaro konferensiya O‘zbekiston tashqi siyosatida izchillik, qat’iy pozitsiya, aniq va o‘zgarmas maqsad borligini ko‘rsatdi. Konferensiyaga Markaziy va Janubiy Osiyo, Yevropa, Amerika, Yaqin va O‘rta Sharq, Osiyo — Tinch okeani mintaqalaridagi 20 dan ortiq davlatlarning yuqori darajadagi vakillari Afg‘onistonda barqarorlikni mustahkam o‘rnatish muammolarini hal etish maqsadida yig‘ildi. Unda o‘nlab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, BMT, Yevropa Ittifoqi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti rahbarlari va nufuzli vakillari, shuningdek, Afg‘oniston muvaqqat hukumati delegatsiyasi ishtirok etdi. Shu bilan birga, qator taniqli olimlar, siyosatshunoslar, ekspertlar konferensiya ishini kuzatib, sharhlab bordi. Bu Toshkent anjumanining xalqaro maydonda g‘oyat dolzarb muammoga bag‘ishlanganini yaqqol ko‘rsatdi. Prezidentimizning ushbu konferensiya ishtirokchilariga Murojaat O‘zbekistonning zamonaviy sharoitdagi siyosiy irodasini, uning jahon hamjamiyatidagi g‘oyat katta mavqeiini namoyon qildi.

Tarixiy taqdir va global manfaatlar to‘qnashuvi afon xalqining keyingi salkam yarim asrlik taraqqiyotiga kuchli zarba berdi. Butun mamlakatni inqirozga uchratib, jar yoqasiga olib keldi. Mamlakatda mavjud ijtimoiy omillar ichki mojaroalarning kuchayib ketishiga sabab bo‘ldi. Biroq afg‘on mojaroasi — mamlakatning ichki muammosi emas. Geosiyosiy nuqtai nazaridan Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarini bir-biriga bog‘lab turadigan, juda katta transport

kommunikatsiyasi imkoniyatiga ega bo‘lgan bu o‘lkadagi beqarorlik bir necha o‘nlab davlatlarning iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalariga, butun Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Afg‘oniston bugungi kunda ham jahon hamjamiyatida geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy nuqtai nazaridan keng imkoniyatlarini saqlab qolmoqda. Jumladan, u Markaziy Osiyo davlatlarini Hind okeaniga qadar bo‘lgan ulkan hudud bilan bog‘lab turuvchi xalqaro tranzit yo‘lagini taqdim etishi mumkin. Bir qator xorijiy davlatlar Afg‘onistonda yirik loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor ekanini bildirmoqda. Xususan, Turkmaniston — Afg‘oniston — Pokiston — Hindiston gaz quvurini o‘tkazish hozirgi zamonning eng katta loyihalaridan biridir. Ushbu loyiha amalga oshirilsa, tabiiy gaz eksportida eng samarali magistralga aylanadi.

2021-yili Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Termiz shahrida BMT shafeligida Afg‘onistonga yordam qabul qilish va uni yetkazib berish bo‘yicha xalqaro logistika markazi ish boshladi. Bu Afg‘oniston bilan chegaraga yaqinida joylashgan yagona terminal. Uning maydoni 40,7 gektarni tashkil etadi. Birgina 2022-yilning birinchi yarmida Termizda o‘z vakolatxonalarini ochgan Butunjahon oziq-ovqat dasturi, UNICEF va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo‘yicha Oliy komissari idorasi tomonidan Afg‘onistonga 35 ming tonnadan ortiq gumanitar yordamlar jo‘natildi.

O‘zbekiston Afg‘oniston uchun mamlakat iqtisodiyotini tiklash uchun zarur bo‘lgan milliy kadrlarni tayyorlashga ham ko‘maklashmoqda. Xususan, 2018-yilda Termiz shahrida afg‘on fuqarolari uchun o‘quv markazi ishga tushirildi va bugungi kunda ham o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Bu afg‘onlarni 17 ta oliy va 16 ta o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitadigan dunyodagi yagona muassasadir. Hozirgi paytda markazda 129 nafar afg‘onistonlik o‘qitilmoqda, ularda o‘qishni allaqachon bitirgan vatandoshlari bilan birga o‘z mamlakatlarini qayta tiklashga munosib hissa qo‘shishlariga shubha yo‘q.

O‘zbekiston Afg‘onistonda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni ko‘llab-quvvatlaydi. Xususan, Surxon — Puli-Xumri elektr uzatish liniyasining qurilishi Afg‘onistonga yiliga 6 milliard kVt/soat elektr energiyasi yetkazib berish imkonini beradi. Bu esa mamlakat ehtiyojining uchdan bir qismiga teng. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi tufayli Afg‘onistondagi 500 ming oila, ijtimoiy infratuzilma va iqtisodiyot tarmoqlari elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z navbatida, Termiz — Mozori-

Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘li qurilishi loyihasining amalga oshirilishi Hayraton — Mozori-Sharif temir yo‘lining mantiqiy davomi bo‘lib qoladi va Pokiston hamda Hindiston temir yo‘llariga, shuningdek, Arab dengizi bandargohlariga (Gvadar, Karachi/ Kasim, Mumbai va boshqalar) chiqish imkoniyatiga ega yangi va eng qisqa tranzit yo‘laklarini shakllantirish imkonini beradi. Qisqacha aytganda, O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokistonni o‘zaro bog‘laydi.

785 kilometr elektr ta’minoti liniyalari, 790 kilometr aloqa liniyalari, 1000 dan ortiq yangi sun’iy inshootlar (ko‘priklar, tunnelar, stansiyalar) qurishni nazarda tutadigan ushbu mintaqalararo temir yo‘li loyihasining amalga oshirilishi Afg‘onistonda temir yo‘l bo‘ylab transport va tegishli infratuzilmani rivojlantirishga ko‘maklashadi. Natijada yarim milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari

iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy-ruhiy inqirozni chuqurlashtirib yuborgan.

O‘zbekiston — Afg‘oniston hamkorligi uzoq tarixga ega. Bizni qadimiy madaniyatimiz, yaqin qo‘shnichilik munosabatlarmiz, turmush tarzimizda o‘xshashliklar, urf-odatlar, an’analar va diniy qarashlarimiz uyg‘unligi birlashtirib turadi. Garchi har ikki davlat bir-birining suverenitetini, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tan olib, uni chuqur hurmat qilsa-da, bir-birimizga befarq emasligimizni, bir-birimizning yutuqlarimizdan manfaatdor ekanimizni hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Buni Prezidentimiz ko‘p marta ta’kidlamoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida davlatimiz rahbari “bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo‘shnilari va boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli

“*Prezidentimizning Afg‘onistonga doir kelishuvchilik va yaqin qo‘shnichilik siyosati o‘zining siyosiy va tarixiy mohiyati bilan jahon hamjamiyatini, davlat va siyosat arboblari, xalqaro tashkilotlarni afg‘on muammosiga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishga chaqiradi.*”

yaratiladi. Bu mintaqaning 15 millioniga yaqin aholisi turmush darajasini yaxshilash uchun juda katta imkoniyat bo‘lish bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga turki beradi, mojaroalarning ijtimoiy zaminini bartaraf etadi. Eng muhimi, Afg‘onistondagi Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘lg‘in sifatidagi tarixiy rolini qayta tiklaydi.

Afg‘oniston ulkan ishlab chiqarish imkoniyatlariga ham ega. O‘lkada juda katta neft va gaz zaxiralari mavjud. Bundan tashqari, Afg‘onistonda mis, qimmatbaho toshlar, uran va boshqa konlar ham topilgan. Boshqacha aytganda, ushbu mamlakatda Mendeleyev jadvalidagi barcha elementlarni topish mumkin. Ana shu ulkan tabiiy boylikdan foydalanishga bu yerda xavfsizlikning kafolatlanmagani, turli qurolli to‘qnashuvlar va jang-u jadallar mavjudligi monelik qilib keladi. Buning oqibatida mamlakatda ishsizlik juda yuqori darajaga chiqdi. Ayni paytda aholining 35 foizi foydali mehnat bilan shug‘ullanmaydi. Ichimlik suvi yetishmasligi, yoqilg‘i energetikasi tanqisligi, ta’lim va tibbiy xizmat darajasi qoniqarsizligi, xavfsizlik kafolatlanmagani jamiyatda

sheriklik uchun ochiq Afg‘oniston kerak”, degan edi. O‘zbekiston Prezidenti BMTning yuksak minbaridan turib dunyo hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini hal etish yo‘lida birlashishga va bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg‘oniston bo‘yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilashga chaqirgandi.

Uzoq o‘tmishda buyuk siljishlarga, Rennans hodisalariga, shonli davlatchilik tajribalariga ega bo‘lgan, jahon fani, madaniyati, adabiyoti va san’atiga kuchli ta’sir o‘tkazgan xalq o‘z taqdirini o‘zi hal qilishga qodir. Xalqimizda “Qo‘shni tanlanmaydi, qo‘shnini Xudo beradi”, “Qo‘shning tinch — sen tinch” degan purhikmat maqollari bor. Bu hayotiy haqiqat asrlar mobaynida isbotini topgan. Bugun esa yana ham dolzarblik kasb etmoqda. Prezidentimizning Afg‘onistonga doir kelishuvchilik va yaqin qo‘shnichilik siyosati o‘zining siyosiy va tarixiy mohiyati bilan jahon hamjamiyatini, davlat va siyosat arboblari, xalqaro tashkilotlarni afg‘on muammosiga insonparvarlik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lishga chaqiradi.

”

KONSTITUTSIYAVIY YANGILANISHLAR YURT RAVNAG‘I VA AHOLI FAROVONLIGIGA YO‘NALTIRILGAN

Mazkur Konstitutsiyaviy qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o‘tkazish, saylov organlarining markazlashgan tizimini shakllantirish, saylov komissiyalari tizimini maqbullashtirish hamda Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari

proporsional saylov tizimi (nomzodlar ro‘yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarni bo‘yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilandi. Yagona saylov okrugida deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlar ro‘yxati asosida taqdim etilishi ko‘zda tutildi.

Davra suhbatlari ishtirokchilari keyingi yillarda mamlakatimizda, xususan, Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga ham e’tibor qaratdi.

Ta’kidlanidek, Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘lib,

bu borada qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent shahrining har bir mahallasiga 2 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgani ularning obod bo‘lishiga, aholining farovon yashashiga xizmat qilmoqda.

— Keyingi yillarda Toshkent yirik megapolis shaharga, yashash uchun eng qulay hududga aylanmoqda, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nodir Jumayev. — Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, yangi yo‘llar va ko‘priklar qurilmoqda, jamoat transporti yo‘nalishlari ko‘paytirilmoqda. Yerusti metrosi qurildi. Bitta metro orqali butun shaharni aylanib chiqish imkoniyati yaratildi. Qisqacha

aytganda, poytaxtning ijtimoiy infratuzilmasi va arxitektura qiyofasi yanada yaxshilandi.

Davra suhbatida ishtirokchilari tomonidan berilgan savollarga batafsil javoblar va huquqiy tushunchalar berildi.

Tadbirdan so‘ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Toshkent shahar va tuman Kengashlari deputatlari “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Olmazor tumanidagi 219-maktab va 15-oilaviy poliklinika hududlarida mehriban hamda manzarali daraxt ko‘chatlarini ekishdi.

Bu kabi tadbirlar poytaxtimizning boshqa tumanlarida ham o‘tkazildi.

“Xalq so‘zi”.

O‘ZBEKISTONNING JOZIBADORLIGI HAYOTBAXSH ISLOHOTLAR TUFAYLI YANADA OSHMOQDA



Mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimining ko‘paygani, ko‘plab yangi mehmonxona va restoranlar ochilayotgani, shaharlardagi transport tizimining takomillashtirayotgani, o‘tkazilayotgan festival va tadbirlar sonining, sifatining oshgani sohadagi hayotbaxsh islohotlar natijasi, desak, adashmaymiz.

Shu o‘rinda zamonaviy andozalardagi restoran va mehmonxonalarining ko‘payishi sayyohlar oqimining kengaygani bilan izohlanishiga urg‘u berishni istardim. Chunki bu tarmoq juda nozik bo‘ladi. Barqaror mijozlar oqimi bo‘lmasa, bunday maskanlar tez orada yopilib ketishga mahkum.

Iqtisodiyotning talab va taklif qonuniyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekistonda turizm jadal rivojlanmoqda. Masalan, men o‘zim bu o‘zgarishlarga guvoh bo‘layotgan bir mutaxassis sifatida O‘zbekistonda ko‘plab tarixiy yodgorliklarning ta’mirlanayotganidan mamnun bo‘ldim. Chunki ular nafaqat sayyohlarni jalb etadi, balki kelajak avlodga meros bo‘lib qoladi. Uzoq o‘tmishda ro‘y bergan voqealarga guvoh bo‘lgan obidalar O‘zbekistonning qadimiy tarixi haqida so‘zlaydi.

Ya’qinda Samarqand va Buxoroga sayohat qilmoqchim. Ushbu qadimiy kentlarda O‘rta asrlarga oid ko‘k gumbazli obidalar, yoyma bozorlar, Buyuk Ipak yo‘li jozibasini, noyob arxitektura namunalari har qanday kishini sehrlab qo‘yadi. Tarix, san’at, adabiyot, musiqa, arxitektura, betakror landshtafllar, hududning tabiiy tabiati turistlarni o‘ziga chorlashiga ishonchim komil.

O‘zbekistonning tarixiy Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik joylashuvi, inson huquqlarini hurmat qilish, qadrlashga asoslangan ichki hamda ochiqlik va pragmatizmga tayangan tashqi siyosati ham jahon hamjamiyatining O‘zbekistonga qiziqishini oshirmoqda.

Markaziy Osiyodagi eng aholisi ko‘p mamlakat — O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan siyosiy tizimni liberallashtirish, bozor iqtisodiyotini barqarorlashtirish, mintaqada va xalqaro maydonda integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ishonchli va istiqbolli, har tomonlama manfaatli hamkor sanaladigan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil kirishi nafaqat Qozog‘iston, balki butun dunyo uchun ahamiyatli. Mamlakatda barcha sohada amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar, xususan, biznes

yuritish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilayotgani, soliq tizimidagi va raqobatni rivojlantirishga qaratilgan ulkan yangilanishlar jahonning turli mintaqalaridan turistlar va investorlarni bu yerga jalb qilmoqda.

O‘zbekiston erishayotgan yutuqlar shulargina emas. Mamlakatda inson huquqlari va ommaviy axborot vositalari sohasidagi vaziyat tubdan ijobiy tomonga o‘zgardi, bolalarni ishg yollash va majburiy mehnat bartaraf etildi, inson huquqlariga oid strategiya qabul qilindi. Avval bloklangan axborot saytlari taqiqdan chiqarildi, xorijiy OAV uchun akkreditatsiya ochildi. Jamoatchilik fikri paydo bo‘ldi, amaldorlarning bu fikr bilan hisoblashmasligi mumkin bo‘lmay qoldi. Keyingi 6-7 yilda oddiy o‘zbekistonliklar mamlakat ichkarisidagi jarayonlarga daxldorlik hissini faol namoyon etmoqda.

O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, birinchi navbatda, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikka, o‘zaro yordam, tinchlik-totuvlik asosidagi do‘stona munosabatni mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilishi ko‘llab-quvvatlanyapti. Darhaqiqat, o‘zaro manfaatli munosabatni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi orqali mintaqada siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch mustahkamlandi. Rasmiy Toshkentning qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlashda sezilarli muvaffaqiyatlar qayd etildi, suvdan foydalanish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaradan o‘tish, mintaqaviy miqyosda transport kommunikatsiyalaridan foydalanish kabi murakkab masalalarga yechim topildi.

Dunyo davlatlari, xususan, Yevropa, Amerika, Kavkaz, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalari, Arab davlatlari, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va strategik hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Faol tashqi siyosat O‘zbekistonning xalqaro obro-e’tiborini oshirish barobarida Markaziy Osiyoni barqaror, ulkan imkoniyatga ega jozibali mintaqaga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Shuning uchun keyingi paytlarda Qozog‘iston matbuotida yurtingiz, uning tarixi, madaniyati va zamonaviy taraqqiyoti haqida hikoya qiluvchi materiallar ko‘paygan. Xususan, xorijliklar uchun viza tartibi yengillashtirilgani, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani haqidagi maqolalar O‘zbekistonga safar qilmoqchi bo‘lgan sayyohlar va sarmoya kiritmoqchi bo‘lgan investorlar e’tiborini o‘ziga tortmoqda. Boshlagan islohotlari tufayli O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomi dunyo tarixidan o‘rin oladi.

Valeriy SURGANOV,
“Vedomosti Kazaxstana”
nashri bosh muharriri.

IHT:

ELEKTROTEXNIKA BO‘YICHA SARMOYAVIY HAMKORLIK JADAL RIVOJLANADI

Bugungi kunda mamlakatimizda elektrotexnika sohasi jadal rivojlanib borayotir. Buning uchun keyingi yillarda bevosita davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mazkur tarmoqda qulay tadbirkorlik muhiti yaratildi. Shu bois so‘nggi to‘rt yilda bu boradagi faoliyati tez sur‘atlarda yuksalib bormoqda. Mamlakatimizda elektrotexnika sohasini rivojlantirish strategiyasiga ko‘ra, joriy yilda ishlab chiqarish hajmi 2 milliard dollardan ortishi hamda eksport hajmi 1 milliard dollarga yetkazilishi maqsad qilingan. Natijada o‘shish ko‘rsatkichi atigi bir yil o‘lgini davrdagidagina nisbatan 25 foizga oshishi ta’minlanadi.

Ayni paytda ixtisoslashtirilgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan 200 turdan ziyod turli elektrotexnika mahsulotlari dunyoning 65 ga yaqin

davlatlarga eksport qilinmoqda. Hozirda eksport geografiasini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar davom ettirilib, aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan.

Bugun yurtimizda iqtisodiyotning barcha sohasi uchun kerakli barcha keng assortimentdagi kabel-sim mahsulotlari, kuchlanish qurilmalari, elektrotexnika uskunalarini hamda xalq iste’moli mahsulotlari sirasiga kiruvchi zamonaviy maishiy texnikalar ishlab chiqariladi. Bunday quvvatlar eng zamonaviy texnologiyalar asosida jahongam mashhur brend kompaniyalar hamkorligida tashkil etilgan. Shu sababli, endilikda O‘zbekistonning elektrotexnika mahsulotlari Markaziy Osiyo bozorining asosiy ulushini qo‘lga kiritib, sifati va ishonchilligi tufayli

MDH hududida o‘z mavqeiini jadallik bilan mustahkamlab bormoqda.

Bu borada IHTga a’zo davlatlar bilan elektrotexnika sohasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorligimiz tobora faollashyapti. Sarmoyaviy hamkorlik yo‘nalishida qator investitsiya loyiholari keng assortimentdagi kabel-sim mahsulotlari, kuchlanish qurilmalari, elektrotexnika uskunalarini hamda xalq iste’moli mahsulotlari sirasiga kiruvchi zamonaviy maishiy texnikalar ishlab chiqariladi. Bunday quvvatlar eng zamonaviy texnologiyalar asosida jahongam mashhur brend kompaniyalar hamkorligida tashkil etilgan. Shu sababli, endilikda O‘zbekistonning elektrotexnika mahsulotlari Markaziy Osiyo bozorining asosiy ulushini qo‘lga kiritib, sifati va ishonchilligi tufayli

Shu bilan birga, qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iz Respublikalarida ishlab chiqarish quvvatlari yo‘lga qo‘yildi.

15 million dollar investitsiya kiritish orqali Tojikistonda yillik quvvati 150 ming dona keng turdagi maishiy texnika mahsulotlari, ya’ni muzlatkich, changyutkich, televizor va suv isitish qurilmalari ishlab chiqarilmoqda. Qirg‘izistonda esa yiliga 20 ming dona kir yuvish mashinalari ishlab chiqarishga a’zo davlatlar hududlarida ham keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani e’tiborga loyiq. Xususan, Turkiyaning “Oduf”, “Femas”, “Kabmak” va boshqa yirik kompaniyalari bilan birgalikda o‘nlab turdagi maishiy texnika hamda kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini hayotga tatbiq qilindi. Endilikda yangi quvvatlarni ishga tushirish bo‘yicha hamkorlik izchil davom ettirilayotir.

Umunam olganda, hozirgi kunda IHTga a’zo davlatlar bilan sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirish hamda xorijiy sheriklik asosida sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish maqsadida umumiy qiymati 93 million dollar bo‘lgan 4 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayoni davom etmoqda. Bu loyihalar Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston

va Ozarbayjonda ishga tushiriladi.

Elektrotexnika sohasida IHTga a’zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy yo‘nalishda, xususan, mahsulotlar eksporti borasida ham hamkorligimiz jadal rivojlanyapti va bunda barcha a’zo mamlakatlarining katta qiziqishi hamda manfaatli bor. O‘tgan yili IHTga a’zo mamlakatlarga 486 million dollarga teng elektrotexnika mahsulotlari eksportga chiqarilgan bo‘lsa, joriy yil yakuni bilan ushbu ko‘rsatkichni 547 million dollardan oshirish maqsad qilingan.

Toshkent sammitida dunyoda elektrotexnika sohasining rivojlanish tendensiyasini inobatga olgan holda, IHT platformasi doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdik.



Birinchi yo‘nalish — bu mis xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar o‘zlashtirishga qaratilgan loyihalarini o‘zaro hamkorlikda amalga oshirish.

Ikkinchi yo‘nalish — jadal rivojlanayotgan muqobil energetika tizimida qo‘llaniladigan qurilmalar, uskuna va butlovchi qismlarni

hamkorlikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish.

Uchinchi yo‘nalish — hozirgi kunda innovatsion va eng dolzarb hisoblangan elektronika mahsulotlari, elektron jihozlar qo‘shimchalari va ular uchun xomashyo materiallarini o‘zlashtirishga qaratilgan loyihalarini birgalikda hayotga tatbiq etish.

To‘rtinchi yo‘nalish — dunyoda talabi tez sur‘atlarda ortib borayotgan litii-ion batareyalar va undan energiya saqlash qurilmalarini hamkorlikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga erishish.

Muxtasar aytganda, poytaxtimiz mezbonligida o‘tkazilgan IHT sammiti a’zo davlatlar o‘rtasida strategik va do‘stona munosabatlar, o‘zaro ishonchli hamkorlik ko‘lamini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘ldi. Nufuzli anjumanda erishilgan kelishuvlar, belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash zimmasiga katta mas’uliyat yuklab, ezuq maqsadlarga yetish uchun astoydil sa’y-harakat qilishga undaydi.

Mirziyod YUNUSOV,
“O‘zeltexsanoat” uyushmasi
boshqaruvi raisi.

XALQ QALBINING OTASHIN KUYCHISI

Yurtimiz ma'naviy hayotida baxshichilik san'atining o'ziga xos o'rni bor. Ushbu san'at UNESCOning Nomoddiy madaniy merosni asrash hukumatlararo qo'mitasi tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilgani bejiz emas. Baxshi, jirov, oqinlarning doston va termalarida insonni inson sifatida namoyon qiladigan eng ezgu tuyg'u va qadriyatlar tarannum etiladi.

Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, hayotning jonbaxsh sadosi kabi yangraydigan bu kuy-qo'shiqlar bugungi dalg'ali zamonda bizga odamzod naslining o'zagi bir ekani, banibashar yagona tomirdan tarqaganini anglatib, Yer yuzidagi barcha millat va elatlarni bir-birini tushunib, hamjihat va hamkor bo'lib yashashga da'vat etishi bilan ayniqsa, qadrlidir.

Ulug' siymolar yodi

Keyingi yillarda mamlakatimizda ushbu qadimiy san'at turini asrab-avaylash, baxshi, jirovlar maktablari, ularning asl ma'naviy ildizlarini, "Ustoz — shogird" an'analarini tiklash, yangicha ruhda izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotir. Jumladan, yurtimizda UNESCO shafeligida har ikki yilda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish yaxshi an'ana tusiga kiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqimiz manfaati, ma'naviy yuksalishi uchun katta mehnat qilgan insonlarni e'zozlash, ushbu ezgu yo'lga umrini bag'ishlagan fidoyilar xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ishlar silsilasida baxshi-oqinlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu dunyodan o'tgan ijodkorlarning yodini ulug'lashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-yilda yurtimizning buyuk oqinlari hisoblangan to'rt baxshi — Islom shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh va Po'lk'an shoir Jonmurod o'g'lining haykallari restavratsiya qilinishi, ko'chalarga ijodkorlar nomi berilishi, ularning merosini o'qib-o'rganish, kelajak avlodga beziyon yetkazish maqsadida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar so'zimiz isboti.

Zavol bilmas xazina

Darhaqiqat, ushbu baxshilarning asarlarini o'qib-o'rganish chog'ida bu xazina zavol bilmasligiga, asrlar osha yuraklarga ezgulik baxsh etib, jaranglab tushishga yana bir bor amin bo'lamiz. Jumladan, Po'lk'an shoir ijodining boqiylik sirlarini uqishga intilar ekanmiz, har bir epik qahramoniga — Alpomish va Barchin, Go'ro'g'li va Yunus pari, Qironxon, Yakka Ahmad, Soqibulbul, Hasanxon, Avazxon, Ravshan va Zulxumor — barcha-barchasiga jon bag'ishlaganini anglaymiz.

Po'lk'an shoir kuylagan an'anaviy dostonlargina emas, balki termalar ham bevosita sodir bo'layotgan voqea jarayonida, ishtirokchilar bilan yuzma-yuz muloqot samarasi o'laroq, do'mbira jo'rligida badiyatani yaratilgan. Bu baxshi xalq birligi va Vatan sharaflari yo'lida haq, ezgulik kurashchisi bo'lishi kerak, degan o'lmas hikmatning hayotiy ifodasidir. Masalan, kuchayib borayotgan janjalni tinchitib, chavandozlar ko'nglidagi keknii ahillikka o'zgartirgan, ular do'stligini tiklab, "yurakning qayg'uman zangi ketishi"ga xizmat qilgan "Burgansoy ko'pkarisi" termasi haqida ayni fikrni aytish mumkin.

Bu termaning tarixi shunday: 1936-yili Xatirchida, Burgansoydagi O'rta qishloqda yashovchi Boliboy sori to'y qilib, shu yaqindagi tepalik adirga tutash kengliklarda ko'pkari uyushtirgan. Unda el-yurtida dong qozongan polvonlar ishtirok etgan. Adir ustida ko'pkarini tomosha qilib turgan odamlar orasida otliq Po'lk'an shoir ham bor edi. U 9 yoshli o'g'li — Umarqulni qiziga mingashtirib olgandi. Ko'pkari qizigandan otizmoqda. Lekin birdan to'polon boshlanadi. Kimdir uloqni taqimi ostiga olayotgan chavandoz otining ayilini kesib yuborgan... Buni ko'rgan bir polvon u nomardning boshiga qamchi solgan. Uloqchilar ikki tarafga bo'linib, biri-birining "aqlini kiritish" uchun mushhtbozlik, qamchibozlik qilishgan... Shunda Po'lk'an shoir ot ustida, adirdan maydonga tushib kelib, do'mbrasini chertib, terma to'qib, uloqchilarning sardorlariga navbatma-navbat yuzlanib, ularni insofqa chaqiradi:

Urug'-urug', tortish-tortish, ajabo...

Shoirming qo'shig'ida xalq birligi g'oyasi butun el-yurtning, Vatanning oliy maqomini belgilovchi ma'naviy kuch sifatida namoyon bo'ladi:

Aslin bilsang — bir elat o'zbakmiz,
Tomir boylagan bir tup o'zakmiz,
To'p bo'libdi bugun Burgansoyda.

To'g'ridan-to'g'ri o'ziga atab aytilayotgan qo'shiq qoni qaynab, jahli kelganda aqli ketib turgan polvonlarning hushini o'ziga keltiradi, tarfakashlar ko'nglidagi g'uborni yuvadi, g'azablar bosiladi, ko'pkari ham, to'y ham xayrli nihoyasiga yetadi. Bu kecha-yu kunduz ilhomiy holatda yashagan xalq shoirlarning salbiy ta'sirdan ruhiy muvozanatini yo'qotgan kishilarga o'z vaqtida bergan madadi — ma'naviy yo'ldi yulduz qo'shig'i qanchalik hayotbaxsh kuchga ega ekanini ko'rsatuvchi unutilmas misoldir. Burgansoy ko'pkarisida ishtirok etgan va Po'lk'an shoir qo'shig'idagi qahramonlardan biriga aylangan chavandoz polvonlar ayni badiha termaning falsafiy-estetik o'zagi — ushbu quyma misralarni umr bo'yi unutmay, davralarda takrorlab yurganlari bor gap:

Haq tomosha ko'rsat, alplirim,
Haq ko'ngliga solmaydi vahim,
Haq ko'ngillar kelibdi Burgansoyga.

Bu voqeani va termani guvohlar xotirasi asosida yozuvchi, jurnalist, folklorshunos Rahim Qodir "Po'lk'an shoir ibratini" kitobida tikladiki, uning bu sadoqatli ijodiy mehnati samarasi Po'lk'an shoir meros-xazinasida o'z munosib o'rmini egalladi.

Nazarimizda, ulug' dostonchining nevarasi — shoir va folklor tadqiqotchisi Amirqul Po'lk'anovning: "Po'lk'an shoir yangi asarlari bilan o'z hamkasblari orasida epik asarda prototip zaminida badiiy obraz yaratishga, dostonchilikda realistik metodni qo'llashga asos solganlardan biri bo'ldi, butun ijodiy faoliyati davomida uni rivojlantirishga, yuksaltirishga intildi", degan fikri haqqoniyligini "Burgansoy ko'pkarisi" termasi ham namoyon qilib turibdi.

Po'lk'an shoirning ushbu badiha termasi e'tiborimizni ona tilimiz boyliklarining ro'yobi o'laroq, azal-azaldan yashab kelayotgan folklorimiz, jumladan, an'anaviy dostonlarimiz va ularning ijodkorlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'naviy, badiiy hodisalar sari tortadi.

Jonajon xalqimiz uzoq asrlar osha milliy o'zligimizning yo'llovchisi va qo'llovchisi, jahonaro

“ Po'lk'an shoir kuylagan an'anaviy dostonlargina emas, balki termalar ham bevosita sodir bo'layotgan voqea jarayonida, ishtirokchilar bilan yuzma-yuz muloqot samarasi o'laroq, do'mbira jo'rligida badihatan yaratilgan. Bu baxshi xalq birligi va Vatan sharaflari yo'lida haq, ezgulik kurashchisi bo'lishi kerak, degan o'lmas hikmatning hayotiy ifodasidir.

tan olingan ona tilimizning yaratuvchisi va egasidir. Butun insoniyatning, chunonchi, o'zbek xalqining barcha fazilatini, avvalo, uning tilini jonli va haqqoniy tarzda namoyon qiladi. Har bir xalqning farzandini, kasb-koridan qat'i nazar, ona tili tozaligini bedaxl saqlash, yanada rivojlantirib, boyitib borish, milliy va albatta, umumbashariy ma'naviyat sahnasiga ibrat bo'lgulik jonli ijod mujassami sifatida olib chiqish maqsadi' e'takchiga, qo'shiqchiga, laparchiga, o'lanichiga, termachiga, maqolchi va matalchiga, topishmoqchiga, lofchiga, latifachiga, qiziqchiga, askiyachiga, naqlchiga, rivoyatchiga, dostonchiga aylantiradi.

Folklor, xalq ijodkorlari, xususan, baxshi-shoirlar haqida atqoliq adablarimiz bildirgan fikr-mulohazalar, ta'rif va tahsinlar ham bu hayotiy haqiqatni tasdiqlaydi. "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li muqobilining birinchi nashrini tayyorlagan ulug' shoirimiz Hamid Olimjonning ushbu boqiy qahramonlik eposimiz ma'naviy va badiiy ahamiyatini muqol ixchamligi va donoligi bilan ifodalab bergan so'zboshi — maqolasi, buyuk shoirimiz G'afur G'ulomning o'ziga xos tadqiqoti — O'zbekiston yozuvchilarining katta anjomlaridan birida milliy folklorimiz to'g'risida qilgan ma'ruzasi, shubhasiz, folklorshunoslar uchun ham, xalq og'zaki ijodi ixlosmandlari uchun ham har kuni zarur o'g'itlar bo'lib yashab kelmog'ida.

Jumladan, Qo'rg'on dostonchilik maktabining ustodi va xazinaboni deb atalgan Jossiq shoirning shogirdi — Po'lk'an shoirni xotirlar ekan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin: "Xalq og'zaki adabiyotimiz beqiyos boy xazinaga ega. Undagi ana shu beqiyoslik bo'lmaganida hozirgi go'zal adabiyotimiz bu qadar yuksalmagan bo'lardi... Buyuk baxshilari safida Po'lk'an shoirning o'ziga xos jihatlari bor, — deb e'tirof etgan edi. — Ayniqsa, uning bilikliligi, hofizasining kengligi... Axir yetmishdan ziyod dostonni yoddan kuylash va ularga jilo berib, bizgacha yetkazib berishdagi xizmatlarini unutib bo'ladimi?!"

Yuksak badiiy mahorat ifodasi

Po'lk'an shoirning badiiy mahorati, tafakkur va tasavvur olamining kengligi haqida gap ketganda, u kuylagan "Qironxon" dostoni yodga tushadi. Mazkur asarda keltirilishicha, Do'rmon mamlakati podshosi Alixonning yuragini befarzandlik alami o'rtaydi. U qo'l ostidagi amaldorlarining maslahati bilan azizlarning turbatlarini ziyorat qilib, farzand tilaydi. Nihoyat, bir buzruksanada "Sahar vaqti yotib edi, bir tush ko'rdi. Xo'jayi Xizr, llyos tushiga kirdi. U: "Ikki farzand berdi, o'g'lingning otini Qironxon



qo'ygin, qizingning otini Oqbilak qo'ygin", deb aytdi. Alixonga bir munosib yor topish umidida, vazir sovhilgini davom ettirib, "Bir lochiq, vayrona joylarning oldiga yetdi. G'o'ng'illagan shovqinni eshitdi. Shunday qarasa, bir kampirning uch qizi o'tirgan edi, ko'rdi. Shunda Boymuhammad: "Bular nima so'zlar ekan?" deb tursa, eng kattasi aytadiki: "Agar men podshoning davlatxonasida bo'lsam, turli taomni tortsam, kesgan oshlarni o'xshatib kessam". O'ranchi qiz aytar ekan: "Osh kesib, osh tortganda, men turli kiyimni kimxoblardan bichsam, tikib, katta beklarning ustiga yopsam". Shunda kichkina qiz aytdiki: "Ko'rgandan gapiraymi, kechirgandan gapiraymi?". And qizlar aytdi: "Ko'rgandan gapir". "Ana men kecha yotib bir tush ko'rdim, tushimda Alixon podshoni yo'ldosh ko'rdim. Bir o'g'il, bir qiz ko'rdim. O'g'limning otini Qironxon, qizimning otini Oqbilak qo'yibman. Qironxon qo'lida dovot-qalam, qiblag qarab munojot qilib o'tiribdi". Bu gapni Boymuhammad vazir eshitdi".

Binobarin, uch opa-singil suhbatlari ko'rsatadiki, podshoni befarzandlik changalidan qutqarishdek, ya'nii butun mamlakatni egasiz qilib qo'yishi mumkin bo'lgan tanazzuldan olib chiqishdek yuksak mas'uliyat, majburiyat yosh-u qari

Alixon podsho Bo'tako'zni zindondan chiqarib kelish uchun saroyning nufuzli ayollarini yuboradi. Ammo u zindondan chiqmaydi. "Noma" qul qilibsizlar. Meni chiqaradiganing o'zi kelib chiqarib oladi, — dedi". Alixon podsho zindondan boshiga kelib, Bo'tako'z oyimga qarab, bir so'z aytyapti:

...Endi bo'lsin yuraklarning havasi,
Topildi, qaddingdan, darding davosi.
Bizdan o'tsa, tavba qildik, Bo'tako'z,
Endi bo'lding Do'rmon elning egasi.
Borib ko'rgin Qironjonning bo'yini,
Kimga aytay bu yurakning o'yini,
Eson-omon keldi ikki farzandning,
Borib qilgin bolalaring to'yini.

Alixonga javoban Bo'tako'z aytgan qo'shiq Po'lk'an shoir mahoratini, ayni paytda Qo'rg'on dostonchilik maktabi namoyandalari an'anaviylik va badihaviylik mutanosibligini hamisha ilhomiy avjda saqlab, ijod va ijro muvozanatini ta'minlaganini yana bir marta zuhur etadi:

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen menga yurakka toza dard bo'lding.
Olib borib so'ramay gunohimni,
Sen, qaytay, yurakkimga dard bo'lding,
Ajalning to'nini o'zing kiy, deding,
Qoshing kerib, qovog'ingni o'y, deding,
So'ramayin olib borib o'zimdand,
Qaytibgina, ko'zing qiyib so'y, deding,
Sen qayta yuraklarimga dard bo'lding...

Endi Ergash Jumanbulbul o'g'li aytgan "KuntuQmish" dostonini esga olaylik. Zangarga yangi bo'lgan podsho Kuntug'mish o'z o'g'illarini — Mohi bilan Gurkini tanimay, dorga oshisha farmon beradi. Mohining: "Qoraxonning yurti sabil bo'lmasin, Qurimasin Kuntug'mishning tuyog'i" degan so'zlaridan haqiqatning tagiga yetib, taxtdan tushib, farzandlarini qutqazishga shoshiladi... Shunda Mohini ko'kragiga olib, ko'tarib yig'lab turgan yangi podsho Kuntug'mish ekanini bilib, Xolbeka unga bunday deb murojaat etadi:

Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo'ygan dard eding,
Chiqsin ko'zing, tanimading bolangni,
Ne tilingman buni dorga tort, deding.
Avval oxir meni muncha kuydirding,
G'am bilan ko'zingning yoshin quydirding...
Yura bilmay, yurar yo'ldan toyrildim,
Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Chiqsin ko'zing, tanimading bolangni,
Armon bilan men bolamdan ayrlidim.
Men seni shahzoda dedim, mard dedim,
Sen qanday siynamga qo'ygan dard eding.

Har ikki parcha go'zal, fojiaiyi, iztiroblarga to'la ayol qalbining po'ratanli tuyg'ularini betakror tasvirlaydi va mehrga qorishiq ifodalari jozibasi bilan rom etadi. Qarang, Po'lk'an shoir dostonchiligimizda asrlar osha shakllanib, sayqal topgan andozaviy ibora — epik klishe mazmunini mohirona yangilab, o'ynatib yuborgan, ular o'z o'rniida shu qadar jonlanib ketganki, bu noyob badiiy tasvirlar andozaviy iboralar asosida yuzaga kelayotganligi xayolingizga ham kelmaydi...

Atoqli baxshi kuylagan dostonlarda mujassamlashgan so'z boyligi xalqimiz ko'ngil xazinasiing ko'zgusi o'laroq har bir yangi avlod ruhida ona tilimizga, Vatanimizga muhabbat uyg'otib, milliy o'zligimiz ma'naviy tayanchlaridan biri sifatida to'ab qad topaveradi.

Po'lk'an shoir azal-azaldan va barcha zamonlarda xalqimiz yaratib, asrab, yangi avlodlarga jonli tarzda — nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazib kelayotgan milliy eposimizning misli yo'q ijoddoshlari va ijrochilaridan biri maqomida, shu bilan birga, o'zi ham hamnafas, yelkadosh, muhabbat va adolatga to'lug' hayotga erishish yo'lida jazm etgan elning ko'nglini qamragan tuyg'ularni dostonlari, termalarida sururu g'urur bilan ifodalagan kuychi sifatida ma'naviy hayotimizdagi badiiy mezonga aylanib ulgurgan. Shu bois zarur hollarda ma'naviy hayotimizdagi, kundalik turmushimizdagi voqea-hodisalarni Po'lk'an shoir ibratini mezonni kesimida anglashga harakat qilamiz. Zotan, Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, baxshi, oqin va jirovlar azaldan xalq qalbining kuychilari, turli millat va elatlarni birlashtiradigan oliyjanob insonlar sifatida ardoqlab kelinadi.

Muhammadali QO'SHMOQOV,
filologiya fanlari nomzodi.

Umummilliy harakat

XORAZMNING
“YASHIL BELBOG’”I
HUDUDGA YANADA
KO’RKAMLIK VA
TAROVAT BAXSH
ETADI

Orolbo'yi mintaqasida joylashgan Xorazm vohasida ekologik barqarorlikni saqlash, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashda yashil hududlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida joriy yil

25-oktabrdan 1-dekabrgacha davom etadigan kuzgi ko'chat ekish tadbirlariga viloyatda puxta taraddud ko'rildi.



Joriy yil kuz mavsumida viloyat hududiga ekiladigan ko'chatlar bo'yicha manzilli dastur shakllantirildi. Unga ko'ra, jami 6 mln. 156 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chatini o'tqazish rejalashtirilgan.

Ayni paytda davlat hamda jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniylar, madaniyat va san'at namoyandalari, taniqli sportchilar, yoshlar, umuman, butun aholi oylik tadbirlarida faol qatnashmoqda.

— Asosan, viloyatimiz tuproq va iqlim sharoitiga mos gujum, katalpa, terak, to'rong'i, tol kabi manzarali, jiyyda, behi, uzum, anor, anjir, tut kabi mevali daraxt ko'chatlarini ekishga tayyorladik, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i Atabek Qilichev. — Hududlarni ko'kalamzorlashtirishda asosiy masala suv ta'minoti bilan bog'liq. Ekilgan ko'chatlarni sug'orish uchun 72 ta yangi suv qudug'ishga tushirildi. Shuningdek, zarur joylarda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini ham joriy etyapmiz.

E'tiborli jihati, ko'chat ekish tadbirlarida yetti yoshdan yetmish yoshgacha kattayu kichik yurtodshlarimiz, turli millat vakillari faol qatnashmoqda.

— Ko'chat ekish tadbirlarida viloyatimizdagi milliy madaniy markazlar ajoyib tashabbuslar bilan chiqaypti, — deydi O'zbek — turkman do'stlik jamiyati raisi Davlatnazar Rajabov. — Bugungi kunda Xorazm viloyatida 30 ga yaqin millat vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashamoqda. O'zbekiston — barchamizning umumiy uyimiz. "Yashil makon" umummilliy loyihasida biz ham faol qatnashyapmiz. Jonajon Vatanimizni bog'-rog'larga burkash, atrof-muhit musaffoligini asrash har birimizning fuqarolik burchimiz.

Viloyat hududida 34,7 gektar maydonda va 84 ta sanoat korxonasi joylashgan manzillarda 125 gektar maydonda "Yashil belbog" barpo etiladi. Yashillik olamiga burkanadigan bu maskanlar xalqimiz, voha mehmonlari tashrif buyurib dam oladigan, miriqib hordiq chiqaradigan so'lim go'shalarga aylanadi. Hayotimizni yanada ko'rkamlashtiradi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

Xalq so‘zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir Z. Xudoyshekurov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41.

O'ZA yakuni — 21.32

Topshirildi — 23.45

1 2 3 4 5 6